

XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSHLARIDA JIZZAX VOHASIDAGI MA'MURIY
BIRLIKLARNING TASHKIL ETILISHI VA ULARNING ETNOMADANIY
JARAYONLARDA ISHTIROKI
(ARXIV VA STATISTIK MATERIALLAR ASOSIDA)

Qakhramon Almanov Obloqulovich

Gulistan State University, 120100. Sirdarya Region, Gulistan City, 4th District, Uzbekistan.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14562871>

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Jizzax vohasidagi ma'muriy birliklarning shakllanishi va ularning etnomadaniy jarayonlarga ta'siri, shuningdek, Rossiya imperiyasining mustamlaka siyosati natijasida vohada amalga oshirilgan ma'muriy-hududiy qayta bo'linishlar mahalliy aholi turmush tarziga sezilarli ta'sir ko'rsatganligi hamda Jizzax uezdi tarkibidagi volost va uchastkalar tashkil etilishi, ularning etnik tarkibi hamda ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Jizzax vohasi, XIX asr oxiri - XX asr boshlari, Rossiya imperiyasi, ma'muriy birliklar, volostlar va uchastkalar, etnik tarkib, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, mustamlaka siyosati, yer va suv taqsimoti, etnomadaniy jarayonlar.

ORGANIZATION OF ADMINISTRATIVE UNITS IN THE JIZAKH OASIS IN THE
LATE 19TH - EARLY 20TH CENTURIES AND THEIR PARTICIPATION IN
ETHNOCULTURAL PROCESSES
(BASED ON ARCHIVE AND STATISTICAL MATERIALS)

Abstract. In this article, the formation of administrative units in the Jizzakh oasis at the end of the 19th - beginning of the 20th century and their influence on ethnocultural processes, as well as the administrative-territorial redistribution of the oasis as a result of the colonial policy of the Russian Empire had a significant impact on the lifestyle of the local population. and the organization of volosts and sections within Jizzakh uezd, their ethnic composition and socio-political changes are analyzed.

Key words: Jizzakh oasis, the end of the 19th century - the beginning of the 20th century, the Russian Empire, administrative units, volosts and sections, ethnic composition, socio-political processes, colonial policy, land and water distribution, ethnocultural processes.

ОРГАНИЗАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЕДИНИЦ ДЖИЗАКСКОГО ОАЗИСА И
ИХ УЧАСТИЕ В ЭТНОКУЛЬТУРНЫХ ПРОЦЕССАХ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX
ВЕКА
(ПО АРХИВНЫМ И СТАТИСТИЧЕСКИМ МАТЕРИАЛАМ)

Аннотация. В данной статье рассматривается формирование административных единиц в Джизакском оазисе в конце XIX - начале XX века и их влияние на этнокультурные процессы, а также административно-территориальный передел оазиса в результате колониальной политики Российской империи оказали существенное влияние на образ жизни местного населения и организацию волостей и округов в пределах Джизакского уезда, анализируются их этнический состав и общественно-политические изменения.

Ключевые слова: Джизакский оазис, конец XIX - начало XX века, Российская империя, административные единицы, волости и участки, этнический состав, общественно-политические процессы, колониальная политика, земельное и водное распределение, этнокультурные процессы.

Kirish (Introduction). XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Jizzax vohasida ma'muriy birliklarning tashkil etilishi mintaqaning ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlariga katta ta'sir ko'rsatgan. Ushbu davrda Rossiya imperiyasining mustamlaka siyosati natijasida o'lkada ma'muriy-hududiy qayta bo'linishlar amalga oshirildi. Bu jarayonlar mahalliy aholi turmush tarziga, xo'jalik hayotiga va etnik tuzilmasiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Tadqiqot arxiv va statistik materiallarga asoslanib, Jizzax vohasidagi ma'muriy birliklarning shakllanishi, ularning roli va bu jarayonlarning aholi hayotidagi aksini yoritadi.

Metodlar (Methods). Ushbu tadqiqot tarixiy hujjatlar, jumladan, Rossiya imperiyasining nizomlari, arxiv materiallari, shuningdek, statistik ma'lumotlarni o'rghanish orqali tadqiq etildi.

Asosiy manbalar sifatida 1865-yilgi "Turkiston viloyatini boshqarish to'g'risida"gi vaqtinchalik nizom, 1886-yilgi "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida"gi nizom hamda mahalliy arxivlarda saqlangan hujjatlar tahlil qilindi. Qishloq va volostlar tashkil etilishi haqidagi ma'lumotlar mintaqaviy hujjatlar yordamida qayta ko'rib chiqildi.

Natijalar (Results). XX asr boshlariga kelib yer to'grisidagi nizomga muvofiq qayta tuzib chiqilgan Jizzax uezdi va uning mamuruy birliklarida jami 266999 kishi istiqomat qilgan.

Ularning etnik tarkibiga ko'z tashlaydigan bo'lsak, aholining 181961 nafarini o'zbeklar, 12901 nafarini tojiklar, 3096 nafarini qozoqlar, 836 nafarini ruslar, boshqa millat vakillari esa 8205 kishini tashkil etgan[1]. Jizzax uezdi tarkibida quyidagicha ma'muriy birliklar – volostlar bo'lgan:

1. Qo'rg'ontep, 2. Qizilqum, 3. Otaqo'rg'on 4. Pistalitov, 5. Chordarya, 6. Sintob, 7. Forish, 8. Bog'dan, 9. Ko'ktuba, 10. Nakrut, 11. Sauryuk, 12. Xotchamukur, 13. Chashmaob, 14. O'zbek, 15. Rabat, 16. Zomin, 17. Yam, 18. Yangiqo'rg'on, 19. O'smat-Qatortol, 20. Sangzar, 21. Qoratosh.

Ushbu ma'muriy birliklarning tashkil etilishi va nomlanishi vohada ancha yillardan beri yashab kelayotgan etnoslar bilan bog'liq holda tuzilgan. Bu ma'muriy birliklarda yashovchi aholining turli qishloq, ovul, mahallalarga bo'linishida esa aholining etnik mansubligi va ilgaridan beri qo'llanilib kelayotgan nomlar va mahalliy aholi va yevropalik aholi soni to'g'risida ma'lumotlar aks etgan jadvallar milliy arxivda saqlanayotgan manbalarda keltirib o'tiladi[2].

Bu volostlarda yashayotgan aholining tarkibi bo'yicha qilingan arxiv va statistic ma'lumotlar asosidagi tadqiqotimizga ko'ra, volostlarda turli urug' va etnoslar bir biridan farq qilgan masalan *qirqlar* uezdning Yangiqo'rg'on volostida ko'p bo'lgan bo'lsa yuz urug'i Zomin va Yom da, O'smat qatortolda *turklar va barloslar*, Zomin shahrida *qayirma,qorasirkali*[3], Sangzor va Qoratoshda *yuz* va *qirqlar*, Forishda *turkman*, Pistalituda *qirg'iz* va *qazoqlar*, Bog'don va Sintobda *turkman* va *tojiklar* ko'pchilikni tashkil etganligiga guvoh bo'ldik[4]. Shuningdek urug'lar va etnoslar miqyosida aholi soniga qarab chiqish jarayonida ma'lum bir volost hududida bir hil urug' vakillari ko'pchilikni tashkil etishi, masalan (*Yangiqo'rganda qirq urug'i, Nakrutda yuz urug'i vakillari ko'proq yashagan.*) yana qaysidir volostlarda umuman teskari jarayonni kuzatdik[5].

Bunday holatlar bo‘lishiga bu hududlarda yashayotgan urug`larning doimiy ittifoqchi va qadimdan yonma yon yashab kelishi ularning ho‘jalik turmush tarzi va madaniy aloqalarida o‘zaro yaqin o‘xshashlik mavjudligi bilan bo‘lsa kerak. Bu kabi statistik va arxiv ma’lumotlari XX asr boshlarida Jizzax vohasida yashagan aholining etnik tarkibi ancha murakkab bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bu davrda Jizzax vohasida asosan to‘rtta beshta qabila vakillari xususan, xitoy-yuz (*yuzning tarkibidagi katta bir bo‘g‘in*), qirq, qang‘li, turkman, nayman va saroy qabilasiga mansub aholi vakillarining urug` va shahobchalari yashayotgan manzilgohlari ko‘pchilikni tashkil etgan bo‘lgan bu qabila va urug`lar o‘zaro etnomadaniy jarayonlarda doimo faol aloqada bolib kelganligi bugungi kunda ham bu urug`lar joylashgan aholi manzilgoxlarining yonma yon joylashganligi bilan izohlash mumkin[6]. Masalan, *xitoy-yuz* urug`i asosan Yangiqo‘rg‘on volostining Saribozor, Chuvilloq, Oqqo‘rg‘on, Beshbola, Qo‘shsaroy, Qizilqo‘rg‘on, Yuqori va Quyi Nauqa qishloqlarida (jami 270 xonodon va 1200 kishi) istiqomat qilishi qayd etilgan. *Qirq* qabilasi asosan O‘ymout va Xo‘jabuloq, Baxmal, Gulqishloq, Chillamozor, Kuchum, Olmasuvon, O‘rta Gulqishoq, Sug‘unboy, Yuvosh va Obiz, Chubar, Qora, Xolttoy kabi qishloqlarida (jami 1420 xonodon, 2618 kishi) joylashgan. Qang‘li qabilasi Qang‘li, Sasiq qishlog‘i, Tutuvli, Ko‘kgumbaz, Gulqishloq qishloqlarida (jami 576 xonodon, 1024 kishi), Saroy qabilasiga mansub aholi (jami 138 xonodon, 603 kishi) Yuqori va Quyi Saroy qishloqlarida yashashligi e’tirof etilgan[7]. Bu nomlari keltirilgan ma`muriy birliklarning ko‘pchiligi o‘sha hududda yashayotgan urug`ning nomi yoki uning bir bo‘g‘inining nomidir[8]. Vohadagi ma`muriy birliklarning tashkil etilishida aholining ho‘jaligiga alohida etibor qaratilgan, chorvador qavmlar uchun vohaning cho‘l va dasht hududlarida alohida ovular tashkil qilingan bo‘lib bu ovullarni tashkil qilish uchun ulardagi o‘tovlar va hovlilar soni inobatga olingan. Masalan Qizilqum volosti 2647 ta o‘tov, Rabot volosti 2732 ta hovli hamda Zomin volosti 2188 ta hovlidan iborat bo‘lgan holda turli chorvador va o‘troq aholi istiqomat qilgan[9].

XX asr boshlarida kelib Jizzax uezdi 112 ta qishloq va ovul jamoalariga (shulardan 77 tasi qishloq jamoasi, qolgan 35 tasi ovul jamoasi) bo‘lingan, ularda 896 ta aholi punkti (shahar, qishloq va ovul) mavjud bo‘lgan[10]. Bu ovul, qishloq va aholi punktlarining nomlari asosan o‘zlarining urug`larining nomlari bilan atalgan yoki hududning geografik o‘rnini shuningdek aholining ho‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lgan[11]. Qishloqlarning nomlari ko‘pincha eski o‘zlarining nomlari bilan atalish holatlari ko‘p bo‘lgan bo‘lsa, ovul jamoasida bu masala bir oz boshqacha hal etilgan. Chunki ko‘chmanchi aholi odatda o‘z qishlov yoki yozgi manzilini hech qanday nom bilan atamagan. Sababi bu hududlarda ular doimiy o‘z manzilgohlarni qurishmagan. Bularning joylashgan o‘rnini urug`i yoki etnos nomi yoki chorvasidagi tamg‘a nomi, yoki turli to‘plarining nomi bilan atalish holatlari ham vohada uchraydi[12]. A. Bazarbayevning Jizzax vohasida yaylov yerlardan foydalanish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlari vohadagi bir qator chorvadorlar yashaydigan qishloq va ovul aholisi o‘z yaylov yerlarini bo‘lib olganligi ko‘rsatib o‘tiladi[13]. Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, Jizzax viloyatining tog‘ va tog‘oldi hududlari aholisi joylashuvi va etnik guruqlarining rang-barangligi bilan ham nisbatan farq qilgan.

Jumladan, Baxmal, Zomin, Forish, G‘allaorol, tumanlarida turli o‘zbek urug` vakillari bilan bir qatorda boshqa millat va elatlar ham istiqomat qilgan[14].

Muhokam (Discussion). Turkiston o‘lkasi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan so‘ng mintaqani boshqarish bo‘yicha mustamlaka ma’muriyat tomonidan bir qator

nizom va yo‘riqnomalar ishlab chiqildi. Mazkur me’yoriy hujjatlarda o‘lkani ma’muriy-hududiy jihatdan qayta bo‘lish masalalari kiritib o‘tilgan edi. Podsho hukumati tomonidan 1865 - yil 6-avgustda chiqarilgan “Turkiston viloyatini boshqarish to‘g‘risida”gi vaqtinchalik Nizom Turkiston o‘lkasidagi dastlabki me’yoriy hujjat bo‘lib, unga asoslanib ish yuritish talab qilingan.

1866-yil Jizzax va Xo‘jand shaharlari egallanishi natijasida Jizzax vohasi Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritildi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Jizzax uezdi tashkil qilinib uning tarkibida 20 dan ortiq volostlar va turli ovul qishloqlar tashkil qilindi. 1867 yilgi Nizomga ko‘ra dastavval Jizzax uezdi Sirdaryo viloyati tarkibiga kiritilib, Jizzax va Zomin kabi ikkita rayondan iborat bo‘lgan umumiyl maydoni 632 kvadrat mil[15] bo‘lib[16], shimoldan Chimkent va Toshkent uezdlari bilan, sharqdan Xo‘jand uezdi hamda janub va g‘arbdan Buxoro amirligi tarkibidagi Samarqand viloyati bilan chegaradosh bo‘lganligi manbalarda keltirib o‘tilgan[17].

1886 yilda “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida”gi navbatdagi Nizomga muvofiq Jizzax uezdi va Xo‘jand uezdining Savot volostlari tashkil topdi va bu uezdlar Zarafshon okrugi negizida tuzilgan Samarqand viloyati tarkibiga kiritildi. Viloyat tarkibidagi Jizzax uezdi maydoni jihatidan viloyatdagi eng katta uezd hisoblanib, uning maydoni 45000 kvadrat verstni tashkil qilgan[18]. Ushbu Nizomning 61-bandiga muvofiq har bir uezd uchastkalarga bo‘lingan hamda uezd bo‘yicha uchastkalarning taqsimlanishi uning maydoni, aholisi va boshqa mahalliy sharoitlarga ko‘ra amalga oshirilgan[19]. Ushbu Nizomga muvofiq Jizzax vohasi hududida Bog‘don, Yangiyo‘rg‘on va Zomin kabi uchastkalari tashkil etiladi. Bu yangi tashkil etilgan uchastkalarning ichida hudud jihatdan eng katta (36000 kvadrat verstni) va volostlari ko‘pi Bog‘don uchastkasi bo‘lgan. Bu uchastkada jami 8 ta mamuriy birliklar yani volostlar tashkil etiladi[20]. Biroq bu uchastka aholisi va xonadonlarining soni jihatidan Yangiyo‘rg‘on uchastkasidan katta emasdi. Yangiyo‘rg‘on uchastkasi 4000 kvadrat verst maydonda joylashgan bo‘lib, uning tarkibida jami 7 ta volost bo‘lgan.

Zomin uchastkasi esa aholisi, volostlar soni va maydonining hajmi bo‘yicha eng kichigi bo‘lib, u 5 ta volostdan iborat bo‘lgan hamda maydonining o‘lchами Yangiyo‘rg‘on uchastkasining maydoni bilan teng bo‘lgan[21]. Nizom va yo‘riqnomalarga ko‘ra volostlar tashkil etish uchun aholining turmush sharoiti va hovli yoki o‘tovlar soni hisobga olinishi shart qilib qo‘yilgan[22].

Jizzax vohasi aholisining xo‘jalik tarzi turlicha bo‘lgan, bu holat o‘lkada tashkil etilayotgan mamuriy birliklarning soniga ham o‘z tasirini o‘tkazmay qolmagan. Jumladan, vohada yashayotgan aholi XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida o‘troq va yarim o‘troq ko‘chmanchi holatda hayot kechirishgan[23]. Vohada o‘troq aholi yashovchi volostlar 1000 mingdan 2000 minggacha bo‘lgan hovilardan tarkib topgan bo‘lsa, yarim o‘troq ko‘chmanchi aholi yashovchi volostlarda o‘tovlar sonini viloyat boshqarmasi aniqlab bergan, biroq, o‘tovlar soni ikki mingdan oshmasligi kerak degan norma bo‘lgan[24]. Shuningdek vohada aholi manzilgohlarini barpo etishda aholining ho‘jalik turmush tarzi inobatga olinib ularning qishgi joylashuv o‘rniga alohida etibor berilgan[25].

XIX asrning oxiri -XX asrning boshlarida Jizzax vohasida joylashgan Jizzax uezdining Qoratosh, Rabot, O‘zbek, Yom, Zomin, Yangiyo‘rg‘on, Nakrut, Savruk, Sangzor, Xotchamuqr, Chashmiob, O‘samatqatortol, Bog‘donda asosan o‘zbeklar, Sintobda tojiklar, Otaqo‘rg‘on, Qizilqum, Qo‘rg‘ontepa, Pistalitog‘, Ko‘ktepa va Chordorada qozoq, qirg‘izlar ko‘pchilikni

tashkil qilgan. Uezdning yigirmadan ortiq volostlaridan iborat mamuriy birliklarida asosan o'zbeklar, qisman tojik, qozoq, qirg'iz, turkman, qorqalpoq va boshqa etnoslar istiqomat qilishgan[26].

Vohadagi mamuriy birliklardagi aholining doimiy soni va etnik mansubligi bo'yicha olib borilgan surishturuvlар asosan yuzaki amalga oshirilgan bo'lib, bu holat o'lkadagi demografik holatni to'laqonli yoritish imkonini bermagan.

Bu turdagи o'zaro chalkash holatlar bo'lishiga sabab sifatida bizningcha bu hududlarda o'troq aholidan tashqari ma'lum bir volostlarda ko'chmanchi aholi yashovchi qishloq va ovul jamoalarining ham o'rni bo'lgan. Samarqand viloyati uezdlari ichida Jizzax uezdi ko'chmanchi aholi eng ko'p istiqomat qiladigan uezd bo'lgan bo'lib, bu ko'chmanchi aholi maskanlari vaqtlar o'tishi asnosida doimiy maskanlarga aylanib borgan. Jumladan, 1898-yil dekabrida Bog'don uchastka pristavi Jizzax uezd hokimiga maydoni jihatidan eng katta volost bo'lgan, Qizilqum volostining holati va uning ovul jamoalarini qaytadan tashkil etish to'g'risida yozma ma'lumot yuboradi. Bu kabi ma'lumotlarga ko'ra volostning umumiyligi maydoni katta bo'lib, shimoliy hududi taxminan 160 verst uzunlikda, kengligi esa 120 verst maydonda joylashganligi uni boshqarishda qiyinchiliklar tug'dirayotganligi takidlanadi. U Qizilchala va Oyoqquduq degan joydan boshlanib, shimoliy chegarasi Turkiston shahridan 15 verst uzoqlikda joylashgan, o'zining quduqlariga ega yarim o'troq aholi yashovchi makongacha yetib borgan edi. Bunday volostni boshqarish mustamlaka ma'muriyatiga qiyinchilik tug'dirgan. Maydoni jihatdan katta hududda joylashgan Qizilqum volostini qayta taqsimlash arafasida u 9 ta ovul jamoasidan iborat bo'lib, 1, 2 hamda 5 ovul jamoasida Baxtiyor urug'i, 3 va 4 ovul jamoasida esa Alchin urug'i, 8 va 9 ovul jamoasida esa Qo'ng'irot urug'i hamda 6 va 7 ovul jamoasida Qoraqalpoqlar istiqomat qilganligi manbalarda keltirib o'tiladi. Bu kabi urug'larlarning turli ovul jamaolari tarkibida qoldirib boshqarish murakab bo'lib, buning yechimi faqatgina yangi volostlar tashkil etish yo'li bilan hal etilishi to'g'risida Bog'don uchastka pristavining taklifi, uezd boshlig'iga jo'natiladi. Taklifga ko'ra, 6 hamda 7 ovul jamoasini bo'lgan holda ovul jamoalar sonini 10 taga yetkazish, undan so'ng har bittasi 5 ta ovul jamoasidan iborat bo'lgan ikkita volost tashkil etish uchastka pristavining rejasi edi. Shu orqali, har bitta urug'ni to'liq bir ma'muriy hududga tushirish, volostlarni ma'muriy boshqarish, jamiyat aloqalari va xo'jalik turmush tarzi jihatidan qulayliklarni yaratib berish ko'zda tutilganligi ko'rsatib o'tiladi.

Bundan tashqari, urug'larning joylashuv o'rniga ko'ra taqsimlanishi shu hududda yashayotgan aholining istaklariga ham muvofiq kelganligi ko'rsatib o'tiladi. Bog'don uchastka pristavining taklifi juda rejali bo'lib buning natijasida ko'chmanchi va yarim o'troq aholi o'rtasidagi o'zaro nizoli vaziyatlarning ham oldini olishi ko'rsatib o'tiladi. Bunday aholi punktlarining joylashgan o'rniga ko'ra taqsimlash, yani, volostni sharqdan g'arb tomonga qarab bo'lish qulay emasligi ta'kidlanadi. Agar shunday bo'ladigan bo'lsa, birinchidan, volostdagi bir necha ovul jamoalari o'rtasidagi aloqa yo'qoladi. Ikkinchidan, xosil bo'limgan yillari volostning janub tomonida yashovchi yarim o'troq aholi shimoliy Qizilqumda joylashgan Jettijo'l vodiysiga o'tishiga hamda ularning yozgi yaylovdan qishlov joyiga ko'chishiga to'siq bo'lishi uchastka pristavining ma'lumotida ko'rsatib o'tiladi.

Ko‘chmanchi aholining manzilgohlarining nomlanishi quduqlar bilan bog‘liq bo‘lib, asosan Qizilqum volostining shimolidan janubiga qadar, ya’ni Durtquduq qudug‘idan Nurotagacha hududlarda joylashgan.Bunday aholi maskanlariga misol qilib, Jirenboyquduq, Musuraliquduq, Mullo Omonquduq, Irmambetquduq, Uchquduq, Koshquduq kabilarni keltirish mumkin. Bunday quduqlar xar bir urug‘niki alohida bo‘lgan, urug‘ yoki uning oqsoqoli yoki urug‘ning ma’lum bir bo‘lagi nomi bilan bu quduqlar atalganligini ko‘rish mumkin. Bag‘don uchastka pristavining ikkinchi taklifiga ko‘ra chegara chiziqlarini belgilash ham quduqlar soni va aholining maskanlari soniga bog‘liq holda amalga oshirilsagina Qizilqum volosti teng ikkiga bo‘lingan bo‘lar edi. Biroq bunday bo‘linishda 5 ovul jamoasi g‘arbiy qismga, 1 va 2 ovul jamoasi esa sharqiy qismga tushib qolardi. Natijada Alchin (Olchin) urug‘i turli volostlarda yashashiga to‘g‘ri keb qolar edi.

Bundan tashqari 6 va 7 ovul jamoasidagi deyarli 200 ta o‘tovdan iborat qoraqalpoqlarning bir qismi sharqiy qismda, qolgan tarkibi g‘arbiy qismda qolib ketardi. Bu kabi o‘zaro chalkashlik holatlarini bartaraf etish uchun, Bog‘don uchastka pristavi yakuniy hulosani elon qiladi unga ko‘ra, 3, 4, 6 va 7 ovul jamoasi g‘arbiy qismga tushgan holda Qo‘rg‘ontepa volosti nomini olishi hamda 1, 2, 5, 8 va 9 ovul jamoasi sharqiy qismga tushgan holda Qizilqum volosti nomini olib ularning chegarasi shimoldagi Durtquduq (4 ovul jamoasi)dan Jirenboyquduq (1 ovul), Shanpukulquduq (1 ovul), Nurboyquduq (1 ovul), Mulloqulquduq (5 ovul), Oqtoyloqquduq (5 ovul), Oqmanbetquduq (5 ovul), Aliqulquduq (5 ovul), Aydarquduq (5 ovul), Alikul Turg‘onboyquduq (5 ovul), Oybo‘taquduq (5 ovul), Nurfayzquduq (5 ovul), Mirzaquduq (5 ovul), O‘razmurodquduq (5 ovul), Berkutboyquduq (5 ovul), Niyozbekquduq (5 ovul), Umarboyquduq (9 ovul) orqali janubgacha yetib borgan holatdagina, har bir urug‘ bitta volost tarkibiga to‘liq o‘tib, ovul jamoalarining yo‘q bo‘lib ketishiga yo‘l qo‘ylmasligi qayd etiladi. Jizzax vohasining bir qancha ma’muriy birliklarga bo‘linishi natijasida ma’lum bir tartiblar ishlab chiqilishiga to‘g‘ri kelgan natijada, ushbu tartibdan foydalanishda muammolar vujudga kela boshlaydi. Bu holat hudud aholisining hayotiga nafaqat, siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy jihatdan, balki ijtimoiy jihatdan ham ta’sir o‘tkazmasdan qolmagan. Mana shunda tartiblardan biri hududlardan foydalanishda bilet olish tartibini keltirib o‘tish mumkin.

Bu kabi ma’lumotlarga nazar tashlanganda bu hududlarga kelib o‘z chorvasini boqayotganlar ham turli urug‘ vakillari bo‘lib ular asosan Karmananing Qirot, Duldundering Ato, Kajdumak, Qal‘ai Dausning Bahrin qishlog‘idan kelganlar bo‘lganligi qayd etiladi. Keyinchalik bu qishloq vakillarining malum bir qismi o‘zlarining doimiy manzilgohlarini qura boshlaganligini bugungi kunga kelib vohada shu urug‘ vakillarining to‘p va tarmoqlari yashayotganligi bilan izohlash mumkin. Qisqa qilib aytganda, asrlar davomida bir hudud tarkibida bo‘lgan aholi Rossiya imperiyasi hukumatining tashabbusi bilan bir necha ma’muriy-hududiy birliklarga bo‘linib ketishi natijasida turli etnomadaniy jarayonlarni boshdan kechirdi. O‘lkada kechgan etnomadaniy jarayonlarda turli urug‘ va to‘plar bilan bir qatorda ma’lum bir xalqlar bilan bog‘liq holdagi aholi manzilgohlari barpo etildi. Mustamlaka ma’muriyatining Turkiston o‘lkasini ma’muriy – hududiy jihatdan bo‘lishning asosiy maqsadi mahalliy aholi ustidan boshqaruvni tashkil etish va soliqlarni o‘z vaqtida hamda to‘lig‘icha yig‘ib olish bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

Bunday mamuriy tuzilishlarga oida o‘zaro bo‘linishlarda ham mahalliy aholiga yer va suvdan foydalanishda bir qancha noqulayliklarni keltirib chiqargan. Natijada aholining haqli etirozlariga sabab bo‘lgan bunday o‘zgarishlar aholining istak va hohishlariga binoan o‘zgartirilgan yoki bekor qilingan. Yer va suvdan foydalanishning mahalliy tartibi bir yaxlit hudud sharoitiga moslashgan bo‘lgan. Masalan o‘lkaning chorvador va yarim o‘troq aholisi istiqomat qiladigan hududlarda yer bilan bog‘liq holatlar bir- biridan farq qilgan. Jizzax vohasining bir qancha ma’muriy birliklarga bo‘linishi natijasida ushbu vohadagi aholining umumiy tartiblarga itoat etishida bir qancha muammolarni vujudga keltirgan. Bu kabi holatlar mintaqasi aholisining etnomadaniy jarayonlariga, hayotiga nafaqat, siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy jihatdan, balki ijtimoiy jihatdan ham ta’sir o‘tkazmasdan qolmagan.

Xulosa(Conclusion). XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Jizzax vohasidagi ma’muriy birliklarning shakllanishi Rossiya imperiyasi tomonidan olib borilgan mustamlaka siyosatining o‘ziga xos ko‘rinishi edi. Ushbu davrda amalga oshirilgan ma’muriy-hududiy qayta bo‘linishlar mintaqaning ijtimoiy-siyosiy va etnik manzarasini jiddiy ravishda o‘zgartirdi. Jizzax uezdi tarkibida tashkil etilgan volost va uchastkalar, bir tomonidan, mahalliy aholi turmush tarzi va xo‘jalik faoliyatiga moslashtirilgan bo‘lsa, boshqa tomonidan, bu jarayonlar aholi o‘rtasida nizolar va muammolarni keltirib chiqardi.

Yer va suv resurslaridan foydalanishdagi noqulayliklar, ko‘chmanchi va o‘troq aholining manfaatlarini to‘g‘ri hisobga olinmasligi natijasida mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar vujudga keldi. Shu bilan birga, ushbu qayta tashkil etish jarayonlari mintaqaning demografik va etnik murakkabligini yanada oshirdi. Mahalliy etnik guruhlarning ijtimoiy va xo‘jalik aloqalari yangi sharoitlarga moslashtib borar ekan, mintaqadagi etnomadaniy jarayonlar o‘zgarishlarga uchradi.

Umuman olganda, Jizzax vohasida amalga oshirilgan ma’muriy-hududiy qayta bo‘linishlar Rossiya imperiyasi mustamlaka siyosatining mahalliy aholiga ta’sirini ko‘rsatib, tarixiy tajribalarni o‘rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Bu jarayonlarning o‘rganilishi mintaqaning tarixiy rivojlanishini to‘g‘ri baholash va kelajakda mustamlakachilik davrining ijtimoiy-siyosiy ta’sirini chuqurroq anglashga imkon yaratadi.

REFERENCES

1. Всесоюзный перепись населения 1926 г. т.XXV. Узбекская ССР. ЦСУ. СССР. –М., 1928. –с. 145-149.
2. ЎзР МА, И.21-фонд, 1-рўйхат, 4-иш, 1-вараЕ.
3. ЎзР МА, И.21-фонд, 1-рўйхат, 1100-иш, 4-вараЕ.
4. Вирский Н.М. Очерк Яны-Курганской волости Джизакского уезда Самаркандинской области / Справочная книжка Самаркандинской области. Выпуск X. – Самарканд, 1912. – С.25.
5. Базарбаев А. Жиззах воҳасида яйловлардан фойдаланиш масаласи (XIX аср охири – XX аср бошлари) “Уструшона Буюк Ипак йўлида, унинг минтақалараро сиёсий – иқтисодий ва маданий муносабатларни ривожлантиришдаги ўрни (Антик ва ўрта асрлар даврида)” мавзусида ўтказилган Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Гулистан, 2016. – Б. 139-141.

6. Пален К.К. Уездное управление. – Санкт-Петербург, 1910. – С.11.
7. Ҳужжатлар таҳлилидан кўринадики, маҳаллий шароит деганда кўпроқ аҳолининг ер ва сувдан фойдаланиш масаласи етник мансублиги назарда тутилган. Положение об управлении Туркестанского края. Том II. Часть 2. – Санкт-Петербург, 1886. – С. 9.
8. Пален К.К. Уездное управление. – Санкт-Петербург, 1910. – С.11.
9. Боғдон участка пристави аҳолисининг сони 91212 та ва хонадонлар сони 11714 та бўлган бир вақтда Янги Қўрғон участка приставида 87159 та аҳоли яшаган ҳамда 11486 та хонадон мавжуд бўлган. (Список населенных мест Самарканской области. (По сведениям 1904 и 1905 гг.). – Самарканд, 1906. – С. 67-101).
10. (Положение об управлении Туркестанского края. Том II. Часть 2. – Санкт-Петербург, 1886. – С.15).
11. Алманов Қ. XIX аср охири – XX аср бошларида Самарқанд вилояти Жиззах уездининг демографик манзараси. <https://science.nuu.uz/> O‘zbekiston milliy universiteti xabarlarli, 2022, [1/6] issn 2181-7324
12. Положение об управлении Туркестанского края. Том II. Часть 2. – Санкт-Петербург, 1886. – С. 11.
13. Положение об управлении Туркестанского края. Том II. Часть 2. – Санкт-Петербург, 1886. – С. 11.
14. Список населенных мест Самарканской области. (По сведениям 1904 и 1905 гг.). – Самарканд, 1906. – С.
15. ЎзР МА, И.21-фонд, 1-рўйхат, 840-иш, 8-8 – варақ олди, орқаси.
16. ЎзР МА, И.21-фонд, 1-рўйхат, 840-иш, 2-варақ олди
17. ЎзР МА, И.21-фонд, 1-рўйхат, 840-иш, 10-варақ.(Положение об управлении Туркестанского края. Том II. Часть 2. – Санкт-Петербург, 1886. – С.11-12).
18. ЎзР МА, И.21-фонд, 1-рўйхат, 840-иш, 12-12 варақ орқаси.
19. ЎзР МА, И.21-фонд, 1-рўйхат, 840-иш, 18-варақ орқаси, 19-варақ орқаси, 23-варақ